

## ABU MANSUR al-MOTURIDIYNING HAYOTI VA MA'NAVIY MEROSI

### THE LIFE AND SPIRITUAL HERITAGE OF ABU MANSUR AL-MOTURIDIY

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali AKT 23.02-guruh talabasi

Jozilov Umarjon Farxodovich.

#### Annontatsiya:

Ushbu maqolada biz tan olgan hadisshunos allomamiz al-Moturidiy hayoti va ijodi davomida ilm izlb borgan mamlakatlari, qoldirgan asarlari ma'naviy meroslari va bizgacha yetib kelgan ma'lumotlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** fiqh, hadisshunos, din, tobein, fuzalo, islom, qomus, hidoyat, Imom, risola, qur'on.

O'zbekiston - buyuk allomalar yurti! Darhaqiqat, Vatanimiz qanchadan-qancha ulug' siymolar, olim-u fuzalolarning yuksak ilm cho'qqilarini zabt etishiga sababchi bo'lgan maskandir. Bu yurt o'zining go'zal tabiati, hushsuvrat insonlari, umuman olganda, jannatga tenglashtirilgan ulug' sifatlari bilan buyuk siymolarni bag'rida tarbiyalagan zamindir. Milodiy IX asrda Somoniylar sulolasi davrida dunyoga kelgan buyuk mutakallim, aqoid va kalom ilmining sultoni Abu Mansur Moturidiy ham shu yurtning ko'hna Samarqand diyorida voyaga yetib, diniy va dunyoviy ilm ravnaqi uchun o'zining munosib xissasini qo'shishga muvaffaq bo'ldi.<sup>1</sup> Shuni alohida ta'kidlash lozimki, millionlab musulmonlar qalbiga muborak islom dinining hayotbaxsh g'oyalarini singdirishda buyuk vatandoshimiz imom Abu Mansur Moturidiy hazratlari va ul zot asos solgan "Moturidiylik maktabi"ga mansub allomalarning xizmatlari benihoya kattadir. Abu Mansur Moturidiyning shaxsiyati va ilmiy faoliyatini o'rganish hamda shunday ulug' siymoni xalqqa tanitish ilmiy tadqiqot ishimizning bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi.<sup>2</sup> Shu bois Abu Mansur Moturidiy va moturidiylik ta'limotining g'oyalarini shaxs ma'naviyatini

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/>

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/>



shakllantirish hamda rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganish mavzuning naqadar dolzarb ekanligini belgilab beradi. Shaxs ma'naviyatini yuksaltirish masalasi barcha davrlarda ham dolzarb mavzulardan biri sifatida o'rganib kelingan. Chunki jamiyatning ma'naviy qiyofasi unda yashayotgan insonlarning ma'naviy yetuklik darajasi bilan o'lchanadi. Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash jarayoni davlat va jamiyat a'zolarining zimmasiga juda katta mas'uliyatlarni yuklaydi. Bu borada mamlakatimizda xadissunoslik, kalom ilmi, islom huquqi, tasavvuf, aqida ilmi kabi maktablarning tashkil etilishi diniy va dunyoviy ilmning o'zaro muvofiqligini ta'minlay oladigan malakali kadrlarni yetishtirish uchun asos bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 16-aprelda qabul qilingan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-sonli farmonning qabul qilinishi ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga, dunyo ilmfani va madaniyati rivojiga ulkan xissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganishga, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalashga shuningdek, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashga huquqiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Nega insoniyat har doim ma'naviyatga zaruriyat sezib yashaydi?, Ma'naviyatning shaxs kamolotida qanday o'rni bor?, Ma'naviyatsiz yashash mumkinmi? Mana shu kabi savollar olim va ulamolarning ilm yo'lida mashaqqat chekishiga hamda insoniyat jamiyatini yaxshilash uchun xizmat qilishiga undagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida buyuk ajdodlarimizni xotirlab, shunday ta'kidlagan edi: "ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz.<sup>3</sup> Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va osoyishta hayotning qadrini anglab yetadi" Abu Mansur Muxammad ibn Maxmud al-Moturidiy as-Samarqandiy Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida dunyoga kelgan. Bu qishloq hozirda buzilgan shakilda Motrit deya ataladi. Aslida esa manbalarda aytilishicha, qishloqning nomi arabcha "Moturid?" so'zidan olingan. Manosi, 'Nima demoqchisan? '. Aytishlaricha, Shayx Abu Mansur al-Moturidiy kalom ilmiga ruju qilgan paytida shogirdlari kupayib ketgan va ular uzaro bahs qilganlarida, bir- birlariga arab tilida ko'pincha "Moturid?" dep murojat qilganlar. Shu so'z ko'pchilik qulog'iga tez-tez chalinavergach, Shayx shogirdlarini

<sup>3</sup> abu-mansur-al-moturidiyning-bilish-falsafasida-shaxs-ma-naviyatini-yuksaltirish-masalalari.



moturidiylar, qishloq nomini esa Moturid dep atay boshlaganlar. (Zarnujiy, “Ta’lim al-mutaallim” asari).

Tug`ilgan yili haqida tarixiy manbalarda turli malumotlar berilgan. Masalan, uning abbosiy xalifalardan Mutavakkil (xijriy 232-247 yillar) davrida yashaganligi aniq. Yana, Muxammad ibn Muqatil ar- Roziy (vafoti 248 xijriy yil )va Nasr ibn Yaxyo al-balxiy (vafoti 268 xijriy yil ) kabi ustozlaridan saboq olganini nazarda tutilsa, al-Moturidiyning tug`ilgan yilini 238 xijriy yil dep taxmin qilish mumkin . Lekin “Islom Qomusi” da uning tug`ilgan yili 870 milodiy yil deb kursatilgan.Shunga ko’ra, 2000-yilda al-Moturidiy tavalludining 1130 yiligi nishonlanadi.

Abu Mansur al- Moturidiy 333/944 vafot etgan. Moturidiy ulamolarining eng mashxurlaridan Abul-Muin Nasafiy (438-508x.y,942-1114 m.y) o`zining “Tasuratul-adilla” kitobida shunday yozadi: Abu Mansur al-Moturidiy vafot etganida yaqin shogirdlaridan biri Abul qosim al-Xakim uning qabir toshiga quyidagi bitikni yozdirgan ekan:

“Bu qabr nafasleri miqdoridagi ilmlarni o`zida jam etgan,bor kuchini uilimlarni tarqatish va o`rgatish bilan tugatgan, bas, shuning uchun diniy asarlari maqtovg'a sazovor bulgan va o`z umridan serxosil mevalarni olishga erishgan zotning qabridir”.<sup>4</sup>

Shayx Abu Mansur al-Moturidiyning qabri Samarqand shahrining choqardiza qabristonida ekanligi ishonchli manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tasdig`ini topdi. SHunga binoan,2000-yilning may oyida O`zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan bu xususida maxsus fatvo chiqarildi.<sup>5</sup>

Al-Moturidiy Imydomul xudo ( Xidoyatga eliyuvchi imom ), Qudvatu axlis-suna (Axli sunna peshvosi ), Musaxxixu aqoydil-muslimin ( musulmonlar aqodini islox etuvchi ) Imomil-Mutakallimin ( Kalom ilmi egalarining imomi ), Rabibu axlis-sunna (Axli Sunna val-jamoa tarbiyasini olgan ) kabi ilmiy unvonlarga sazovar bulgan.

Shayx Abu Mansur al-Moturidiyga Abu Bakr Nasr al-Iyoziy (Axmad ibn Abbos ), Muxammad ibn Muqotil ar-Roziy, Abu Bakir Axmad ibn Isxoq al-Juzjoniy, Nasr ibn Yaxyo al- Balxiy kabi olimlar ustozlik qilgan.

<sup>4</sup> Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas’ul muharrir:Z.Islomov.-T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002.-80b.

<sup>5</sup> Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas’ul muharrir:Z.Islomov.-T.: “Toshkent islom universiteti”, 2002.-80b.



Abu Mansur al-Moturidiy xazratlari aqida fanidagi sunniy-xanafiy yunalishini davom ettirib, kup izlanishlardan keyin moturidiya maktabiga asos soldi. SHu asnoda kuplab shogirdlarni yetishtirdi. Abul-Qosim Isxoq ibn Muxammad ibn Ismoil ibn Ibroxim ibn Zayid al- Qoziy al-Hakim as-Samarqandiy ( vafoti 335yoki 342 xijriy.947 yoki 954 milodiy ) yil. Abul-Xasan Ali ibn Sayid ar-Rustug`faniy as-Samarqandiy. Abu Muxammad Abdulkarim ibn muso ibn Iso al-Pazdaviy, Abu Axmad ibn Abi Nasr Axmad ibn al-Abbos al-Iyodiy, Abu Abduraxmon ibn Abil-Asarlar;

1. “Tavilotu axlis-sunna ”yoki “ Tav Lays al-Buxoriylar shular jumlasidandir ilotul-Quron”. Sakkiz jilddan iborat bu asar Quroni karimning tafsiri bulib, unda asosan islomiy aqidaga nisbatan turli qarashlar bayon etilgan va moturidiya aqidasi asosida ularga baho berilgan. Tavsirni al-Moturidiyning shox asari deb atash mumkun. Uning qulyozma nusxalari Misr, Makka, Damashiq, Xindiston, Turkiya va Toshkent kutubxonalarida saqlanmoqda. Toshkent nusxalari taqriban 700 yil burun kuchirilgan. Xanuzgacha uning nashri xech qayerda chiqmagan.

Tafsirga Alouddin Abu Bakir Muxammad ibn Axmad as-Samarqandiy sharh yozgan. Bu sharh ham hanuz chop etilmagan.

2. “Kitob at- Tavxid”. Kalom ilmiga oid eng muhim asar. Moturidiya aqidasi ga oid barcha asarlarning eng birinchi va asosiy manbasi sanaladi.

3. “Sharx al-fiqh al-akbar”. Abu hanifa an-No`mon ( Imom Azam ) qalamiga mansub aqida bobida bitilgan ilk asar “ al-Fiqhul-akbar ”ning sharxi. Bazi olimlar bu sharx Shayx al-Moturidiyga tegishli emas, balki u Abul-Lays as-Samarqandiyga mansub deydi.

4. “ Risola fil-aqida ”. 1953 yilda Anqarada chop etilgan.

5. “ Risola fil -Imon ”.

6. “ Al- Maqolot ”.

7. “ Bayonu vaxm al- mutazila”.

8. “ Raddu taxzib al-jadal ”.

9. “ Radu vaid al-Fussoq ”.

Moturidiya talimotining mutadilligi.

Abu Mansur al-Moturidiya aqoidi maktabiga asos solgan. Aqidning asoslari, arkonlari va bandlarini ungacha xam malum darajada shakillantirishga xarakat bulgan edi. Aqida ilmi tobeinlar davridan boshlab, yani xijratning ikkinchi asrida mustaqil fan sifatida yuzaga kela boshlagan. Mashxur tobeinlardan Xasan Basriy (21-110 x.y. 640-729 m.y) aqida masalalari buyicha dars aytgani, mo` tazila oqimining boshlanishi xam usha paytda ro`y bergani tarixiy manbalardan malum.



Abu Xanifa (Imom Azam) yashagan davrda esa oqim va firqalarning ko'plab turlari yuzaga kelgan edi Ular bilan kurashish uchun esa aqida mustaxkam bulishi zarur edi. Bunday dolzarb masalaga Abu Xanifa befarq qarab tura olmagan, balki, aqida faniga oid birinchi asar-" Fiqixi akbar" ni yozib qoldirgan. Demak, mazxabimiz asoschisi Abu Xanifa No`mon ibn Sobit (raxmatulloxi alayx) nafaqat fuqaxolar peshvosi, balki, aqida va ilmi kalomga xam asos solgan buyuk siymolardan bulgan.<sup>6</sup>

Shayx yashagan davrda aqida ulamolari ikki asosiy manbaga suyanlar. Birinchisi-oyat va xadislar xamda saxoba va tobeinlarning ijmo va ijtixodlari, yani naqliy dalillar. Ikkinchisi-aqliy dalillar. Shayx Abu Mansur esa boshqalarga taqlid qilmadilar, balki naqliy dalillar bilan aqliy dalillarni uyg'unlashtirib, undan sung xulosa chiqardilar. Aqliy dalil deganda falsafa, mantiq va tabiiy fanlar kuzda tutiladi. Vaxolanki, salaf ulomolarining kupchiligi bu dalillarni tan olmas, balki naqliy dalilarning o`zi bilan kifoyalanar edilar. Al-Moturidiy esa, bu ikkisidan ham munosib ravishda ham foydalangan ekanlar.

Yuqorida bayon etilganlardan xulosa qilib aytish mumkunki, Imom al-Moturidiyning bizgacha yetib kelgan ikki yirik asari –" Kitob at-tavxid " va " Tavitotu axlis-suna " buyuk alloma merosini o`rganishda aloxida axamyatga egadir.Maskur asarlarda islom dinining falsafasini tashkil etuvchi kalom ilmining turli masalalarida to`g`ri fikrlar ilgari surilgan, aqidaviy xaqiqatdan adashgan firqalar ilmiy nuqtayi nazardan tanqid qilingan.

Imom al-Moturidiy fikricha insonlarning yomon hulqli ishlari-gunohlari Allohning irodasi bilan, lekin uning roziligisiz amalga oshiriladi. Alloh taolo insonlarni o`z erkini quliga bergan holda yaratgan, yani uning xarakatlari azaldan taqdir etib quyilgan bulsa-da, insonga ayrim ishlarida soxib ixtiyorlikni ham bergandir.Bu ishlarni Imom al-Moturidiy " afoli ixtiyoriy, yani insonda iroda erkinligi mavjud " deb ataydi.Buyuk vatandoshimiz,alloma Imom al-Moturidiy xazratlarining bundan o`n bir asr muqaddam aytgan bu ajoyib fikri bugungi kunda ham g`oyatda dolzar bulib,inson aql-zakovati va tafakkurining imkoniyatlari cheksz ekanligiga ishoradir.Alloma faolyatida yuqorida aytilganidek, muborak islom dinimizning xayotbaxsh mazmun-mohiyatini tug`ri talqin qilish, turli bidat va xurofotlarga botgan guruh va toifalarga qarshi kurash alohida o`rin egallaydi.Shu nuqtayi nazardan xam Imom al-Moturidiy ilgari surgan g`oyalar bugungi kunda ham

<sup>6</sup> Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas`ul muharrir:Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80b.

<https://uz.wikipedia.org/>



g`oyatda dolzarb bulib, nafaqat ilmiy, balki katta amaliy ahamiyatga egadir. Abu Mansur Moturidiy o`zining barcha asarlarida zalolatning har qanday ko`rinishlaridan yiroq bo`lgan, insonlarning mavjud ijtimoiy-ma`naviy muhitida sog`lom ma`naviy tafakkurni targ`ib qilish borasidagi sa`y-harakatlari, shuningdek sof diniy-falsafiy qarashlari bilan o`sha davrning diniy mutaassiblari va buzg`unchi g`oya tarafdorlariga keskin raddiyalar bergan. Bu urinishlari samarasi o`laroq o`z zamonasidayoq “Hidoyat imomi” unvonini olishga sazovor bo`lgan. Allomaning 15 ga yaqin asarlar ustida tadqiqot olib borganligi ma`lum bo`lsada, bizgacha shayx xazratlarining 2 ta mashhur asari yetib kelgan. Ular “Kitob at-tavhid” va “Ta`vilot al-Qur`on” asarlari. Abu Mansur Moturidiy bu asarlari orqali insoniyat yaratilishining falsafiy mohiyati, tavhid ilmi, borliqning insonga ta`siri, ruhiyat ilmi, inson kuch-qudratining ma`lum chegarasi, iroda erkinligi, dunyo va oxiratni anglash kabi masalalar to`g`risida Qur`oni karim oyatlariga asoslanib, ko`plab ma`lumotlar taqdim etgan. Allomaning mashhur shogirdi Abul-Mu`in an-Nasafiy ustozining buyuk xislati va kuchli salohiyatini ulug`lab, shunday ta`kidlagan edi: “Abu Mansur al-Moturidiy imomlarning ulug`i va millatning ustuni edi. Uning Qur`onga yozgan tafsiri barcha chigalliklarni ochib beruvchi, inson qalbidagi shubhali qora bulutlarni haydovchi hamda nihoyatda bolig` vasf ila yaratilgan asardir. Alloh shunday kitobni yozgan zotga o`z salomini yo`llasin.<sup>3</sup>” Abu Mansur Moturidiy ana shunday yuksak ehtromga loyiq bo`lgan qomusiy allomadir. Abu Mansur Moturidiyning aynan aqid va kalom ilmi bilan shug`ullanishiga o`sha davrda vujudga kelgan, insonlarni iymon-e`tiqod masalasida noto`g`ri yo`nalishlarga boshlaydigan turli xildagi talqinlar va chalkashliklarning ko`payib borayotganligi sabab bo`ladi. Abu Mansur Moturidiy, eng avvalo, insonlarning xatti-harakatlarini ontologik jihatdan aniq haqiqat sifatida qabul qiladi va bu fikrni asoslashga harakat qiladi.<sup>7</sup> Uning fikricha, har bir inson o`z harakatlarining haqiqiy egasidir. Insonning o`z xatti-harakatlarining mutlaq sohibi ekanligi, ham aqlan, ham ruhan erkinligi Qur`on oyatlari bilan ochiq-oydin ma`lum qilingandur.<sup>8</sup>

<sup>7</sup> Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Buyuk allomalar: X.S.Karomatov, Z.Xusniddinov, A.Mansurov va boshqalar.; Mas'ul muharrir:Z.Islomov.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2002.-80b.
2. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
3. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
4. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
5. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
8. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
9. <https://uz.wikipedia.org/>

